



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-oktabr*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi*

Тел. (75)-221-44-28

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-oktabr oyi, foizda)




2024- yil 1- noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6595 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 17 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6578 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-oktabr, mlrd. so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 113,1 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024- yillar)



2024- yilning yanvar-oktabr oylarida o'sish sur'ati **108,6** % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-oktabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 19481,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 108,6 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 944,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 16256,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2280,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,2 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-oktabr oyi)

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-oktabr oyiga nisbatan,% da
Qashqadaryo viloyati	19481,4	108,6
Qarshi sh.	5 465,2	110,8
Shahrisabz sh.	1 481,1	107,6
G'uzor	767,4	109,9
Dehqonobod	597,0	106,1
Qamashi	1 334,2	106,3
Qarshi	756,8	106,4
Koson	1 070,9	107,8
Kitob	1 005,9	107,7
Mirishkor	651,5	106,3
Muborak	523,0	106,4
Nishon	715,7	108,2
Kasbi	614,5	106,1
Ko'kdala	517,5	110,5
Chiroqchi	1 690,0	107,6
Shahrisabz	680,9	113,0
Yakkabog'	928,3	106,1

2024- yilning yanvar-oktabr oyida 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz (113,0 %), Ko'kdala (110,5 %) va G'uzor tumanlarida (109,9 %), chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 29,1 % bilan 5465,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Ko'kdala tumani 2,8 % bilan 517,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Hajmi, mlrd. so'm

Qarshi sh.	5465,2
Chiroqchi	1690,0
Shahrisabz sh.	1481,1
Qamashi	1334,2
Koson	1070,9
Kitob	1005,9
Yakkabog'	928,3
G'uzor	767,4
Qarshi	756,8
Nishon	715,7
Shahrisabz	680,9
Mirishkor	651,5
Kasbi	614,5
Dehqonobod	597,0
Muborak	523,0
Ko'kdala	517,5


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-oktabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 16256,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 8,7 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 83,4 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 5,4 % ga o'sdi va 944,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,8 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



● Yirik korxonalar

● Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Mirishkor va Nishon (99,2 %), Muborak (99,5 %), Qamashi (99,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz (16,2 %), Koson va (8,9 %) Ko'kdala tumanlarida va (8,6 %) Qarshi shahrida (7,1 %) kuzatildi.



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

Qarshi sh.	18370,6	Kasbi	2860,8
Shahrisabz sh.	9993,9	Ko'kdala	2712,1
G'uzor	3425,9	Chiroqchi	6250,1
Dehqonobod	3715,1	Shahrisabz	2879,0
Qamashi	4513,4	Yakkabog'	3260,7
Qarshi	2753,9		
Koson	3402,8		
Kitob	3541,9		
Mirishkor	4988,4		
Muborak	5558,3		
Nishon	4257,5		

2024- yilning yanvar-oktabr oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 5427,3 ming so'm (2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 106,2 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi va (18370,6 ming so'm), Shahrisabz shaharlari (9993,9 ming so'm) hamda Chiroqchi tumani (6250,1 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-oktabr), foizda



- Dehqon bozorlari



- Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-oktabr)**

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
Qashqadaryo viloyati	1116,4	109,2
Qarshi sh.	172,6	109,5
Shahrisabz sh.	63,0	116,8
G'uzor	127,4	110,3
Dehqonobod	68,6	107,4
Qamashi	162,0	108,6
Qarshi	40,1	106,7
Koson	79,7	113,2
Kitob	158,5	108,5
Mirishkor	16,4	111,1
Muborak	104,4	112,0
Nishon	117,2	108,2
Kasbi	66,0	111,6
Ko'kdala	121,4	112,0
Chiroqchi	799,4	108,7
Shahrisabz	67,0	103,4
Yakkabog'	117,0	106,5


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2024- yil yanvar-oktabr)**















**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024- yil yanvar-oktabr)**



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2280,7 mlrd.so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 109,2% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) , (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1116,4 mlrd. so'mni (105,3%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1164,3 mlrd. so'mni tashkil etdi (112,8 %).












2024-yilning yanvar-oktabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1116,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (602,8 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>602,8 mlrd. so'm</p>  <p>54,0 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>178,6 mlrd. so'm</p>  <p>16,0 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>53,6 mlrd. so'm</p>  <p>4,8 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>75,9 mlrd. so'm</p>  <p>6,8 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>31,3 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>32,4 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>54,7 mlrd. so'm</p>  <p>4,9 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>34,6 mlrd. so'm</p>  <p>3,1 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>11,2 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>24,6 mlrd. so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>2,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>14,5 mlrd. so'm</p>  <p>1,3 %</p>

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1164,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 802,1 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 310,9 mlrd. so'mni, otlar – 45,4 mlrd. so'mni, parrandalar – 5,9 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>514,5 mlrd. so'm</p>  <p>44,2 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>222,4 mlrd. so'm</p>  <p>19,1 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>65,2 mlrd. so'm</p>  <p>5,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>180,5 mlrd. so'm</p>  <p>15,5 %</p>	<p>Otlar</p> <p>45,4 mlrd. so'm</p>  <p>3,9 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>130,4 mlrd. so'm</p>  <p>11,2 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>4,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1549 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1547 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-oktabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	13401,1	110,4
Qarshi sh.	178,1	107,7
Shahrisabz sh.	39,5	114,7
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	20,1	97,9
Dehqonobod	11,3	106,4
Qamashi	11,2	107,2
Qarshi	26,9	112,5
Koson	21,1	112,1
Kitob	48,2	103,8
Mirishkor	7,1	109,3
Muborak	29	157,5
Nishon	51,2	112,1
Kasbi	10,5	101,9
Ko'kdala	9,9	111,0
Chiroqchi	20	105,9
Shahrisabz	12,2	101,4
Yakkabog'	16,6	104,1

2024- yilning yanvar-oktabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 13401,1 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,4% ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 93,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	3 054,2	113,5
Qarshi sh.	2 682,0	110,6
Shahrisabz sh.	10,4	123,6
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	3,0	148,4
Dehqonobod	5,4	129,3
Qamashi	1,6	155,4
Qarshi	216,3	148,3
Koson	12,6	121,3
Kitob	22,2	115,3
Mirishkor	8,8	129,2
Muborak	8,7	125,5
Nishon	13,4	131,1
Kasbi	21,4	309,0
Ko'kdala	2,9	155,8
Chiroqchi	25,3	113,4
Shahrisabz	0,6	109,4
Yakkabog'	19,6	104,8


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (2682,0 mlrd. so'm), Qarshi (216,3 mlrd. so'm) va Kasbi (21,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-oktabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 3054,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 13,5 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1695,9 mlrd. so‘m (o‘shish sur‘ati – 132,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1187,6 mlrd. so‘m (o‘shish sur‘ati – 96,1 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘atlari, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd. so‘mda**




Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-oktabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6213,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,0 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 5385,3 mlrd.so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,2 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 86,7 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-oktabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	6213,3	108,0
Qarshi sh.	2454,2	114,1
Shahrisabz sh.	532,8	110,1
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	161,1	100,3
Dehqonobod	32,2	118,6
Qamashi	296,8	165,1
Qarshi	553,1	113,0
Koson	372,6	82,1
Kitob	283,4	98,5
Mirishkor	62,1	90,0
Muborak	96	107,5
Nishon	44,3	87,1
Kasbi	92,9	48,0
Ko'kdala	12,8	79,7
Chiroqchi	110,2	95,8
Shahrisabz	112,8	131,8
Yakkabog'	226,5	110,2

2024- yil 1- noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2193 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 7 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2186 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Qamashi (165,1 %) , Shahrisabz (131,8 %) ,Dehqonobod (118,6 %) tumanlarida va Qarshi (114,1 %) shahrida kuzatildi.